

## **ABDULLA ORIPOVNING IJOD VA SHE'RIYAT HAQIDAGI QARASHLARI**

*Usmonova Dildora Sherali qizi*

*Samarqand davlat universitet,*

*Adabiyotshunoslik yo'nalishi 2-kurs magistri*

**Annatatsiya:** Iste'dodli shoir Abdulla Oripovning ijodi faqat she'riyat, tarjima asarlardan iborat emas, uning turfa xil adabiy-tanqidiy qarashlari ham mavjud bo'lib, ularda iste'dod, talant, she'riyat haqidagi qarashlar, ijodiy jarayonning murakkab qirralari bilani anglashga qaratilgan talaygina asarlari ham mavjud. Bu maqolada ana shu jihatlarga diqqat qilingan.

**Kalit so'zlar:** adabiy-tanqid, xususiyatlari, ijodiy jarayon, murakkablik, anglash, his etish, tahlil, tushuncha.

### **ТВОРЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС АБДУЛЛА ОРИПОВА АНАЛИТИЧЕСКИЕ КОНЦЕПЦИИ**

Усмоновой Дилдора Шерали кизи

Самаркандский государственный университет,

Направление литературоведения мастер 2-курса

**Аннотация:** В творчестве Абдуллы Орипова присутствуют различные литературоведческие и критические взгляды, в которых присутствует стремление разобраться в сложных аспектах творческого процесса. Обращалось внимание на то, что литературно-критические взгляды поэта имеют большое содержание и суть в его комментариях о творческом процессе.

**Ключевые слова:** талант, творческий процесс, сложность, понимание, чувство, анализ, понимание, поэзия, взгляды, общность.

### **CREATIVE PROCESS OF ABDULL ORIPOV ANALYTICAL CONCEPTS**

Usmonova Dildora Sherali kizi  
Samarkand State University,  
direction of literary criticism  
magister 2-course

**Annotation:**

In the work of Abdulla Oripov there are various literary and critical views, in which there is a desire to understand the complex aspects of the creative process. Attention was drawn to the fact that the literary-critical views of the poet have great content and essence in his comments on the creative process.

**Key words:** talent, creative process, complexity, understanding, feeling, analysis, understanding, poetry, views, commonality.

Adabiy-tanqidiy fikrlar taraqqiyoti va tarixi uzoq tarixga borib taqaladi. Har qanday davr ijodkori o'zigacha va zamondoshlari yaratgan badiiy asarlarga murojaat etadi. Ular haqida u yoki bu darajadagi qarashlarni bayon etadi. Bu esa adabiy-tanqidiy fikrlar taraqqiyotini belgilaydi. Shu jihatdan O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov ham badiiy adabiyotning taraqqiyoti, ijod va ijodiy jarayon, shoirlik qismati, talant va ilhom kabi tushunchalar haqida o'z mulohazalarini qayd qilib o'tgan. Jamiyatshunoslarning uqtirishicha, axloq axloqiy ong va axloqiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Odatda insonning olamga va o'z-o'ziga bo'lган munosabati axloqiy ong doirasida yuz ko'rsatadi. Bu munosabat kishilarning xulq-atvori, urf-odatlari, xarakteri, imon-e'tiqodiga yaxshilik va yomonlik nuqtai nazaridan baho berishda ko'rindi. Zotan, axloqda tiriklik mazmuni, insonning nazaridan yorug' dunyodagi burchi va or-nomusi o'z ifodasini topgan bo'ladi. Ma'lumki, adabiyotimizning tasvirlash imkoniyati juda katta. Unda jamiyat hayotida birlashish yasagan katta voqealardan tortib, o'sha jamiyat a'zolarining turmush tarzi, urf-odati, ahloq normalarigacha aks etadi. Abdulla Oripovning bir qator she'rlari borki, ularda ba'zan oddiy, ko'z ilg'ammas, bir bir

qarashda uncha muhim bo‘lib ko‘rinabermaydigan turli masalalar ilgari suriladi va badiiy-estetik tafakkur mahsuli bo‘lgan tushunchalar asosida o‘z mulohazalarini qayd qilib o‘tadi. Yozuvchi ijodi haqida so‘z yuritgan adabiyotshunoslar uning Iste’dodli shoir sifatidagi faoliyatini va ijod va ijodiy jarayon haqidagi qarashlarini yuksak badiiy asar sifatida baholashgan. “Shoirni o‘sirib voyaga yetkazadigan qulay ijodxonalar yo‘q. U hayotning har xil sharoitida issiq-sovug‘i, baland-pasti, o‘nqir-cho’nqiri, qing‘ir-qiyshiq joylaridan o‘ziga yo‘l topib o‘tadi va asta-sekin ijodkor sifatida shakllanadi. Shu manoda har bir haqiqiy shoirning tug‘ilib voyaga yetishi bamisoli Abdulla ta’riflagan o‘z yo‘lini o‘zi ochishi kerak bo‘lgan buloq” [1, 12-bet], - deb yozadi. Iste’dodli shoir Abdulla Oripov “Ehtiyoj farzandi” asarida shunday yozadi: “Mening birinchi taassurotim shundan iboratki, bugungi adabiyotimiz ko‘rki va salmog‘i – xalqimizning tarix sahnasida tutib turgan ijtimoiy-siyosiy mavqeiga yarasha. Balki, yonbi Iste’dodlar buyuk badiiy saviyalarini kelajakda namoyish etadilar. Hozircha, men adabiyotimizdagi yuksak ijtimoiy-siyosaiy ravnaqni e’tirof etaman. Bu esa katta bir xalq adabiyoti uchun hazilakam yutuq emas. Ayrim yoshlar, G’ofur G’ulom ko‘nglini keng qilib yozmagan, degan ma’noda gaplar qilishadi. Holbuki, u juda murakkab davrda yashadi. She’r uning qo‘lida bir sehrli tayoqcha edi. Shu tayoqcha bilan u nag’ora chalishi ham mumkin edi, jahonni ug’otishi ham mumkin edi. Lekin Davr shuni taqozo etadiki, u faqat jahonni uyg’otdi. She’r – davr farzandi degani shu. She’riyatning ham umumiyligi printsiplari o‘zgarmasdir” [2, 114-115-betlar]. Qayd qilingan fikrlarda adabiyot va uning murakkab qirralari, ijodkor shaxsi, uning fitratidagi tuyg‘ular ifodasi haqidagi qarashlar o‘z aksini topgan. Iste’dod sohiblari o‘z xalqini, millatini, dunyoga tanitadi va uni tarannum etadi. Shuning uchun she’r davr farzadi degan tushunchani ilga’ri suradi. “Charxlangan qalamlarni hanuzgacha qo‘ldan qo‘ldan qo‘ymagan oqsoqol adiblarimiz adabiyotimizning ko‘rki bo‘lib turibdilar. Ular murakkab sharoitlarda ham o‘z gaplarini iste’dodlari darajasida amallab aytib keladilar. Buning uchun ularga qulluq. O‘rtadagi gina-qudratlar, chekinishlar, adashishlar kelajak uchun

saboq bo'la qolsin. Bo'ldi maza adabiyotimizga endi kirib kelgan va kirib kelayotgan yoshlarga. Chunki ular qo'llariga ilk bor qalam tutganda yozgan narsam unga kulfat keltira ekan, deb o'ylab ko'rgan emaslar. Ularga qo'rquvning kattakon, daxshatli ko'zları begonadir. Axir dabiy avlod uchun bundan ortiq baxt bormi".

Darhaqiqat, Abdulla Oripov buyuk so'z sanatkori va ular qoldirgan adabiy meros haqida so'z yuritar ekan, ularning badiiy poetik mahoratiga alohida to'xtaladi. Masalan sobiq sho'rolar davri adabiyoti haqida so'z yuritganda murakkab bir davrning salbiy jihatlari bilan birgalikda, o'z davrining buyuk ijodkorlarini tarbiyalaganligini ham alohida takidlaydi: "Xullas, mana shunday mas'ulyatlil dovondan turib, xalqimizning ko'pdan-ko'p dongdor vakillariga, ularning faoliyatlariga nazar tashlay boshladik. Chunonchi, Sharof Rashidovning O'zbeston uchun necha o'n yillar mobaynida qilgan xizmatlari munosib ravishda baholandi va bu baho elu-yurt tomonidan mammuniyat bilan kutib olindi". O'tganlarning barchasi ham davr farzandlari edi, lekin ularning xalq oldidagi xizmatlari ham unitilmasdir. Biz yaqin o'tmishda yashab o'tgan allomalarimiz, adiblarimiz ijodidagi muvaqqat g'uborlarni yuvib tashlab, yombi oltinlarimizning asl jamoliga to'yib-to'yib boqishimiz, ularni kelajak avlodlar hukmiga, muhimi vaqt hukimiga avalab uzatmog'imiz shartliligini alohida qayd qilib o'tgan. Biror ijodkor biror tuzimning yoki biror firqani muttasil maqtayvergani yoki qoralayvergani bilan iste'dodi yuksalib qolmaydi. Iste'dod, eng avvalo, tabiyat ehsoni, Olloh tuhfasidir. Asrlar mobaynida ijod ahli turli hukumron doiralarning ta'siriyu va tazyiqidan qutilolgan emas. Bu tazyiqu ta'sir asarlarining mazmunida goho dunyoviy, goho xurofiy tarzda zohir bo'lar edi. Ba'zi shoirlar esa bu g'alvalarning barchasidan bezib faqat yer jamoliyu tabiyat manzaralarini kuylab o'tganlar. Jahon adabiyotidan bunga ko'plab misollar keltirsa bo'ladi. "Biroq, dunyoda shunday tabarruk mavzular ham borki, ularni hech bir tuzim, hech bir siyosat daf'atan qatog'on qilolgan emas, bunday mavzular kimning lafzidan chiqmasin tarixda sira ham salbiy ma'no kasb etgan emas. Bular Vatan, do'stlik va birodarlik, tinchlik va muruvvat kabi mavzulardir"

[3, 244-bet]. Bu mulohazalarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, har bir tuzim o‘ziga xos so‘z san’atkorlarini tarbiyalab voyaga yetkazadi. Ammo jamiyatning turfa xil xususiyatlarini hayot bilan uzviylikda adabiyot uni aks ettiradi. Ana shuning uchun ham badiiy adabiyot davrning uzviy bo‘lagi sifatida shakllanib, rivojlanib boradi. Bu esa davr ijodkorlarini yuzaga chiqaradi. Ana shu jihatlarga Abdulla Oripov iste’dodli ijodkor sifatida e’tibor qaratadi va abadiy mavzularni o‘ziga xosliklarini tahlil qilib beradi. Sobiq sho‘rolar davrida adabiyot va san’at yuksak darajada taraqqiy etganligiga alohida to‘xtalib o‘tar ekan, bu davrning ham buyuk so‘z san’atkorlari myjudligini va yuksak badiiy mukammal asarlar yaratganligiga alohida e’tiborini qaratadi. “-Kamtarlikka yo‘ymang-ku, lekin to‘g’risini aytsam, maqtovlardan hech qachon garangsigan emasman. Ishqilib, baholi qudrat qoralagan, tunni tonglarga ulab yozgan narsalaring haqida iliq gaplarni eshitish kimga yoqmaydi, deysiz. Lekin yaxshi gapni yoqtirishda ham me’yorni unutmaslik kerak. Aks holda yozuvchi ham so‘rg’ichga o‘rgangan go‘dakka o‘xshab qoladi. Go‘dak yarim tunda uyg’onib so‘rg’ich talab qilgandek, maqtovga sel bo‘lgan yozuvchi bilan gaplashganingizda har ikki so‘zingizning birida maqtov hidi kelmasa, boshingiz baloga qoladi. Maqtov quliga aylangan ko‘plab ajabtovur yozuvchilarning ijodi bevaqt so‘lganini yaxshi bilaman. Shu narsadan voqifligimmi, bilmadim, ishqilib shukur she’rlarim haqidagi Rasul Hamzatov, Qaysin Kuliyevdek juda katta san’atkorlarning menga nisbatan aytgan shirin gaplari yoki boyagi aytganingiz Tixonov domladek mashhur kishilarning baholari meni ortiqcha taltaytirmadi, gangitmadi” [3, 130-bet]. Iste’dodli ijodkor adabiyot va san’atning taraqqiyoti uchun katta mehnat qilgan bo‘lsada, biror o‘rinda ijod va ijodiy jarayonga noxolis yondoshmaydi. Shoirlik bu qismat ekaniga alohida urg’u beradi. Ijokor badiiy mahorat haqida so‘z yuritar ekan, hayot bilan yashayotgan jamiyat bilan bog’liqligini alohida qayd qilib o‘tgan. Shuning uchun shoir yozadi: “Jannatga yo‘l” “Mushtum” jurnalida e’lon qilina boshlandi. O‘shanda, hatto shunday bo‘ldiki, maxsus odamlar Do‘rmonda – ijod uyida qo‘lyozmani yo‘qotib yuborishdi ham.

Yoshlik ekan, xotiram kuchli edi, o'n minglab baytni yod bilar edim. Jumladan , yo'qolgan dostonni har bir so'zini jurnal uchun qayta boshdan tiklab berdim. Qarangki, doston bosilib bo'lgach yo'qolgan qo'lyozmani, maxsus idora xodimlari iltifotsizlik bilan bo'lsa-da o'zimga qaytarib berishdi" [4, 144-bet]. Shoirning bu dramatik dostoni chop etilgandan so'ng asar haqida turli xil fikrlar bayon etilgan shoirning o'zi qayd qilganidek, asar haqidagi bir yoqlama qarashlar o'sha davr uchun xos bo'lgan xususiyat edi. Shuning uchun jamiyatimizdagi o'zgarishlar badiiy adabiyotga ham o'zini sezilarli ta'sirini o'tkaza oldi. She'riyat kishi qalbiga eng avvalo, ruhiy tashnalik, cheksiz ehtiyoj, ajib bir sehr tariqasida kirib keladi. She'r inson ruhining bir muncha g'ayritabiyy, ayricha holatidan tug'iladi. Armonga, go'zal iztirobga qondirilishi nihoyatda zarur bo'lgan ehtiyojga aylanadi. Bu ehtiyoj chinakam shoirni umr bo'yi taqib etadi. Shunday bo'lsa-da, Abdulla Oripovdek ijokor adabiyot va san'atni e'zozlab yashadi. Bir qator ijodkorlar ilhom va badiiy mahorat, iste'dod haqida so'z yuritishgan. Abdulla Oripov ham badiiy ijod jarayoniga o'z munosabatini bildirgan zero, adabiy maqolalar, suhbatlar turli-tuman, anjuman va uchrashuvlardagi nutqlar ma'ruzalar ijodkorning butun badiiy olamini, uning ijodiy konsepsiyasini, printsiplarini ijod qonuniyalarini, ijodkorning jamiyatdagi o'rni xususidagi qarashlarini tahlil qilishga, falsafiy mushohadalar asosida fikr bildirishga harakat qilgan. Shoirning bir qator maqolalarida ijod va ijodiy jarayon, badiiy mahorat kabi masalalarga to'xtalar ekan, bu jarayonning murakkab qirralarini tahlil qiladi. shuning uchun ijodiy jarayoning o'ziga xos tomonlarini buyuk so'z san'atkori iiodi misolida tahlil qilishga intilgan. Abdulla Oripov ijodi davomida she'riyatga bo'lgan munosabatini va ijodiy jarayondagi murakkab va oniy holatlarni tahlil qilishga harakat qilgan. Ijodkor uchun avvalo, iste'dod, so'ng esa mehnatsevarlik, izlanuvchalik kerak. Iste'dodsiz mehnat esa yo'q narsalar. Iste'dodsiz ijod bo'lmaydi. Ijod bu so'zma-so'z tarjima qilsangiz yo'q joydan barpo qilish demakdir. Ijodkor uchun eng muhim fazilatlardan biri samimiyyat deb bilaman. U bor joyda to'qima gaplar, aldamchi kayfiyatlar bo'lmaydi. Ijod keng

bir maydon, har kim qo‘lidan kelganicha chin yurakdan ijod etadi. Bu tushunchalar zamirida haqiqiy mehnat katta talant tushunchalari o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun ijodkor qalbidagi istiroblar she’riyatda o‘z ifodasini topishi bilan ijodiy jarayonning iste’dod asosida yuzaga chiqishini alohida qayd etadi. Buning zamirida talant va ilhom, iste’dod va mehnat mavjudligiga alohida urg’u beriladi. Bularning barchasi ijodiy jarayonning mahsuli sifatida o‘z ifodasini topgan shuning uchun badiiyatdagi turli xil qarashlar ijodiy jarayonga o‘z ta’sirini o’tkazadi. Shu jihatdan shoir qismati va taqdiri adabiyot bilan chambarchas bog’liq bo‘lgan. Badiiy adabiyotning turli janrlarida ijod qilgan ijodkorlarning asarlari haqida so‘z yuritish juda katta mahoratni talab etadi. Ana shu nuqtai nazardan, Abdulla Oripov badiiy mahoratni adabiyotimizning katta darg’alari asosida tahlil qilishga va ularning ijodiy jarayoniga munosabatini ifodalashga o‘ziga xos bir o‘rin egallaydi. Shoирning davr adabiyoti haqidagi qarashlarida ham o‘ziga xos mahorat mavjud. Ijokorning fiklarida muayyan davr adabiyoti tahlil qilish ananasi kuzatiladi. “Ijodkorning fazilatini faqat o‘z kechinmalarigina belgilamaydi. U atrofidagi dunyoga, odamlarga teran ko‘z bilan boqmog’i va u haqida teran fikr yuritib, umrboqiy asarlar yaratishga intilmog’i lozim. Bu vazifani uddalashdagi asosiy kalit samimiyligidir. Juhon adabiyotida inja, nozik tug’ularda yirik fikrlarni mujassam eta olgan keng qamrovli, teran asarlar yashab qolgan” [5, 10-bet]. Bu fikrlarda bfdiiy ijodkor bilan uning asari o‘rtasidagi o‘zaro bog’liqni, samimiylarining yashavchanligini ta’kidlab o‘tganligini kuzatishimish mumkin. O’zbekiston xalq shoiri, O’zbekiston qahramoni Abdulla Oripov- tug’ma istedod egasi. U - juda siyrak uchraydigan noyob, nodir shoir. Uning so‘z san’ati xazinasiga qo’shgan hissasi bebafo. Ana shuning uchun ham prezidentimiz I.Karimov shoir ijodiga yuksak baho berib “Biz XX asr adabiyotini A.Qodiriy, G’ G’ulom, Oybek kabi mumtoz adiblarsiz , zamonaviy adabiyotimizni Said Ahmad, Erkin Vohidov singari ijodlarsiz tasavvur eta olmaganimizdek, manaviy kelajagimizni, farovon va buyuk istiqlolimizni A.Oripov ijodisiz ko’z oldimizga keltira olmaymiz. Hozirgi davrda uning she’rlari

xalqimizni adolat tantanasi, yorug' kelajakka ishonch ruhida tarbiyalaydigan yuksak ma'naviy omil bo'lib xizmat qilmoqda" degan edi. A.Oripov ijodining fazilatlari haqida adabiy tanqidchilik va adabiyotshunoslikda juda ko'p fikrlar bayon etilgan. Izzat Sulton, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov kabi bir qator olimlarimiz A.Oripov ijodiga haqli ravishda yuqori baho bergenlar. Akademik I.Sultonov shoir ijodini teran tahlil etib: "Abdulla Oripov she'riyatining eng muhim xususiyati odamlarni birlashtiruvchi kuch-qudratdir. Bu – haqiqiy she'riyatning eng ulug' fazilatidir", - degan xulosaga kelgan edi. Mashhur bolqor shoiri Quysin Quliev o'tgan asrning 60-yillardayoq: "A.Oripov she'riyatida men fikrning salmoqdorligini, obrazlarning ohorli, quymaligini, o'quchini zeriktiruvchi tor ma'noli qizil so'zlikdan " xolilikni ko'rdik. Yosh shoir so'zning ifoda kuchini bexato sezadi, hayotni o'z bo'lishicha, uni o'ziga xos yangi nazar bilan ko'radi. Uzbek she'riyatini yangi, katta iste'dod bilan qutlasa bo'ladi,- deb ta'kidlagan edi.

### **Adabiyotlar:**

- 1.Qo'shjonov M., Meli S. Abdulla Oripov. Monografiya. –Toshkent, Ma'naviyat, 2000. 12-bet.
- 2.Abdulla Oripov. Ehtiyoj farzandi. Adabiy maqolollar, suhbatlar, badiiy publisistika. – Toshkent, Yosh gvardiya, 1988. 114-115-betlar.
- 3.Oripov A. Adolat ko'zgusi. She'rlar, maqolalar. – Toshkent, "Adolat", 2005. 244-bet.
- 4.Oripov A. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. To'rtinchchi jild. –Toshkent, 2001. 144-bet.
- 5.Oripov A. Adabiyot va zamon. Qarang: Mustaqillik davri adabiyoti. Adabiy-tanqidiy maqolalar, badialar. –Toshkent, 2006. 10-bet.
- 6.Насиров А. Искусство и реальная жизнь. Монография. – Турция, Стамбул, – КЕСИТ, 2019. – С. 139.
- 7.Насиров А. Художественная интерпретация хронотопа в романах Одила Якубова // Академия: Международный междисциплинарный исследовательский журнал ISSN222-49-7137. Импакт-фактор SJIF 2020: 7.13. ул. 498-501.
- 8.Насиров А. Ард-конфликт в романе «Бунт и покорность» Укугбека Хамдама // Наука, исследования, разработки // 32. // 2. Берлин 30.08. 2020 - 31. 08. "Алмазный торговый тур". 2020. ISBN: 978-66401-65-5. 208-211 – ул.
- 9.Насиров А. Выражение духовных переживаний в искусстве // Международный журнал интегрированного образования // Том 3, выпуск XI, ноябрь 2020 г. Импакт-фактор 2020: 7.03. стр. 181-182.
- 10.Nasirov A. Poetics of Odil Yakubov's novels. Monograph. - Tashkent, "Fan" publishing house, 2012. - P. 160.